


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>U.I.Obidjanov</b>	
Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....	96
<b>M.A.Abduxalilova</b>	
O'quvchilarda ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish .....	100
<b>M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva</b>	
Boshlang'ich ta'lrim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari .....	107
<b>G.S.Qosimova</b>	
Tibbiy ta'limga matematik modellashtirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari.....	112
<b>S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar .....	117
<b>A.A.Мирзалиев</b>	
Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....	121
<b>A.T.Akbarov</b>	
Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli .....	127
<b>S.M.Sidiqov</b>	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish .....	132
<b>Z.N.Usmonov</b>	
Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiysi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....	137
<b>S.T.Xakimov, N.B.Komilova</b>	
Umumiylar ta'lim makkablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida) .....	142
<b>X.T.Xasanov</b>	
Kasb-hunar makkablar o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari .....	147
<b>G.K.Yakubova</b>	
Turli yoshdagagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish.....	153
<b>T.T.Yusupov</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuuni tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar .....	158
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	164
<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Umumta'lim makkabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar.....	168
<b>D.E.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi .....	173
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniylatlari .....	178
<b>D.E.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli .....	182
<b>L.E.Bobomurodova</b>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar .....	189
<b>G.O'.Yuldasheva</b>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati.....	194
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari .....	194



УО'К: 371.13+37.015.3+37.018+37.041+37.013.42

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI  
RIVOJLANTIRISHNING SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV MODELI**

**МОДЕЛЬ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ  
СОЦИАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

**A PERSON-CENTERED APPROACH MODEL FOR DEVELOPING SOCIO-  
COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS**

Yuldasheva Diyora Erkinovna   
Farg'ona davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya**

*Maqolada bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda o'qituvchilik kasbiiga tayyorlanayotgan talabalarning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy muhit bilan samarali muloqotga kirishish ko'nikmalari, axborot almashinuvi va jamoaviy hamkorlikdagi faol ishtiroyi asosiy mezon sifatida ko'rib chiqiladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali ta'limgarayonida individual ehtiyoj va imkoniyatlarga mos o'qitish metodlari taklif etilib, kompetentlikning rivojlanishiga ijobji ta'sir ko'rsatadigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish, o'zaro muloqotda ochiqlik va empatiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik model ishlab chiqiladi.*

**Аннотация**

*В статье дано теоретическое и практическое обоснование модели личностно-ориентированного подхода, направленного на формирование социально-коммуникативной компетентности будущих учителей. В качестве ключевых критерииев в исследовании рассматриваются личностные характеристики студентов, готовящихся к профессии учителя, их навыки эффективного общения с социальной средой, обмена информацией и активного участия в командном взаимодействии. Благодаря личностно-ориентированному подходу в образовательном процессе предлагаются методы обучения, учитывающие индивидуальные потребности и возможности обучающихся, а также выделяются психологово-педагогические условия, положительно влияющие на развитие компетентности. На основе результатов исследования будет разработана педагогическая модель, которая будет способствовать формированию коммуникативной культуры будущих педагогов, развитию открытости и эмпатии в общении.*

**Abstract**

*The article provides theoretical and practical justification for the person-centered approach model aimed at developing socio-communicative competence in future teachers. The research considers the personal characteristics of students preparing for the teaching profession, their skills in effective communication with the social environment, information exchange and active participation in collective cooperation as the main criteria. Through a person-centered approach, teaching methods appropriate to individual needs and opportunities are proposed in the educational process, and psychological and pedagogical conditions that positively affect the development of competence are highlighted. Based on the results of the research, a pedagogical model is developed that serves to form a communicative culture of future teachers, develop openness and empathy in mutual communication.*

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, ijtimoiy, kommunikativ, pedagogik, kompetentlik.

**Ключевые слова:** учитель, социальный, коммуникативный, педагогический, компетентность.

**Key words:** teacher, social, communicative, pedagogical, competence.

**KIRISH**

Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni texnologik yondashuv asosida muntazam takomillashtirib borish ta'limgarning strategik maqsadlariga erishishda hal etilishi lozim sanalardan biri sifatida qaraladi. Jamiyat ijtimoiy hayoti globallashuv jarayonlari bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanar ekan, ta'limgarayoni uchun ham bu rivojlanish o'z aksini topib boradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Texnologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilardan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Ushbu talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchrashini taqozo qiladi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliy jarayonda qo'llash ta'lismar yordamiga qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiyalarning takomillashuvini talab etadi. Texnologik yondashuv ta'lismi texnologiyalashtirish va uning natijasi sifatini baholash uchun ham ahamiyatli sanaladi.

Zamonaviy sharoitda modellashtirishga eng umumlashgan yondashuv tizimshunoslikni rivojlantirish va ularni modellar metodikasi bilan integratsiyalash bilan bog'liq. Bu assotsiatsiya natijasida modelli bilishning maxsus sohasi – tizimni modellashtirish shakllandi. Nazariy jihatdan bu bilim sohasi ilmiy tadqiqotlarda ishlab chiqilgan tizim yondashuvi va universal modellashtirish parametrlarining umumiyligi metodologik qoidalariga asoslanadi.

Ijtimoiy o'qituvchilarning tayyorgarligini tushunishda "pedagogik tizim" haqidagi ilmiy g'oyalarga tayanamiz, buning uchun boshlang'ich nuqta "tizim"ning umumiy ilmiy tushunchasidir. Hozirgi kunda bu tushunchaning bir necha yuz ta'rifini ilmiy adabiyyotlarda uchratish mumkin. "Tizim" atamasi ilmiy adabiyyotlarda turli ma'nolarda ishlataliladi. Ko'pincha, "tizim" deganda uning tarkibiy qismlariga xos bo'limgan yangi sifatlarni yuzaga keltiruvchi tarkibiy qismlar majmuyi tushuniladi.

"Pedagogik tizim" tushunchasi "produktiv pedagogik faoliyat"ni o'rganish orqali oydinlashadi. U "pedagogik jarayon" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, talabalar va o'qituvchilarning o'zaro munosabatlari asoslanadi. Unumli pedagogik tizim maqsadga erishishga qaratilgan bo'lib, holatlarning oldindan rejalashtirilgan o'zgarishiga, talabalarning xususiyatlari va sifatlarini o'zgartirishga olib keladi. Pedagogik tizim ta'lismar yordamining mustaqil hodisisi sifatida ta'riflanib, u beshta tarkibiy element: maqsad, o'quv axboroti, aloqa vositalari, talabalar va o'qituvchilar bilan tavsiflanadi. Mazkur ijtimoiy sharoitlarda pedagogik faoliyatni eng umumiy, invariant shaklda tavsiflash uchun "pedagogik tizim"ning juda keng konsepsiyasiga murojaat qilinadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish tizimining konseptual modelini ishlab chiqishda modellarga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilar: to'liqlik, yetarlilik va tadrijiylik kabi sifatlarga ega bo'lish; ijtimoiy obyekt, hodisa, jarayoni qayta ishlab chiqish uchun keng ko'lamdagi o'zgarishlar, qo'shimchalar imkoniyatini ta'minlash; mavjud imkoniyatlardan foydalanishga e'tibor qaratish, ya'ni jamiyat taraqqiyotining ma'lum darajasida faoliyat olib borish; tadqiqot vazifasi bo'yicha ijtimoiy obyekt (hodisa, jarayon) haqida yangi foydali ma'lumotlar berish; o'z faoliyatining o'rganilayotgan ijtimoiy obyekt, hodisa, jarayonga muvofiqligini tekshirish.

Modellarni baholashning asosiy mezonlari: refleksianing yangiligi (intuitiv, sifat tavsifi, vizual imitatsiya, tizimni ko'paytirish); tarqalishi (umuman ijtimoiy soha, sanoat, ijtimoiy guruh va boshqalar), rivojlanish darajasi (g'oya ilgari suriladi, sxema quriladi, algoritm ishlab chiqiladi va hokazo).

Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasiga yo'naltirilgan o'qitish tizimining zamon talablari asosida takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish professor-o'qituvchilarning talabalarga mos keladigan ta'lismar uslubi va rivojlanish strategiyasini aniqlash, turli xildagi pedagogik vositalar, usullarni tasniflash, mavjud manbalar va boshqa yordamchi materiallardan foydalanish imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modelining to'rt komponentli sxematik ko'rinishi quyidagilardan iborat:

Modelning "Maqsad" blogida belgilangan asosiy maqsad "Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Maqsad ijtimoiy buyurtmaning huquqiy-me'yoriy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini, Oliy ta'lismning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan malaka talabida keltirib o'tilgan. Ta'lismning maqsadi ta'lismning mohiyatini belgilaydi, jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning taraqqiyotini nazarda tutadi. Ta'lismning maqsadi o'quv-bilish jarayoni, uning mohiyati, mazmuni, usul va vositalari, professor-o'qituvchi va talaba munosabatlari

asosida belgilangan bo'lib, tizimning samaradorlik ko'rsatkichi qanday shaxs yoki mutaxassisni shakllantirishni ifodalaydi. Ta'lif tizimining oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi, ya'ni ta'lif jarayonida belgilangan muayyan talablarga mos shaxs shakllantirilishi lozim.

Metodologik blogi Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirish tamoyillari, komponentlari va omillarini o'z ichiga oladi. Shulardan birinchisi "Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirish aspektlari" komponenti,

Tashkiliy-faoliyatli blogida "Pedagogika fani metodologiyasi" fanlari doirasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondasuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirishda ta'lifni tashkil etish shakllari: seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak, guruqli, individual, trening kabi shakllar tanlangan. Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirish metodlari sifatida: keys-stadi, fikr bildirish ("jumboq", "qobiqdan chiqish", "finish"), interaktiv o'yinlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv metodlar ("o'rta savol", "uzun arqon") takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu blokda Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirish vositalari: interaktiv dasturiy vositalar, o'quv reja, o'quv dasturlari, multimedia vositalari, AKT texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

Baholovchi-natijaviy blok bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirishning samaradorligini aniqlash bosqichlari, mezon, daraja, ko'rsatkichlar hamda natijadan iborat.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirishning samaradorligi darajasini aniqlash maqsadida yuqori, o'rta va past mezonlari mavjud.

Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikkativ kompetetntligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashning diagnostik tizimini quyidagicha ifodash mumkin (1-jadvalga qarang).


1-jadval

Daraja	Ko'rsatkichlari	- Natija
Yuqori daraja	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ O'z fikrini aniq, ravshan va tushunarli ifoda eta oladi.</li> <li>✓ Muloqot jarayonida noverbal (tana tili, imo-ishoralar, intonatsiya) elementlardan to'g'ri foydalanadi.</li> <li>✓ Turli yoshdagi va madaniy guruhlardagi odamlar bilan samarali aloqa o'rnata oladi.</li> <li>✓ Konfliktlarni oldindan sezib, konstruktiv tarzda hal qila oladi.</li> <li>✓ O'quvchilar va hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga ega.</li> <li>✓ Pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanadi.</li> </ul>	Bu darajadagi o'qituvchilar pedagogik faoliyatda yuqori samaradorlik ko'rsatib, ta'lif jarayonida interaktiv muloqot muhitini yaratadilar. O'quvchilar ularning darslarda faoliyk bilan ishtiroy etadi va mustaqil fikrlashga rag'batlantiriladi.
O'rta daraja	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ✓ O'z fikrini ifodalashda asosiy talablarni bajaradi, lekin ba'zan aniqlik yetishmaydi.</li> <li>✓ Noverbal muloqot elementlardan foydalanadi, lekin hamisha to'g'ri tatbiq etmaydi.</li> </ul>	Bu darajadagi o'qituvchilar yetarli darajada samarali ishlaydi, lekin ba'zan kommunikativ cheklar sababli muammolarga duch kelishi mumkin. O'quvchilar bilan interaktiv muloqotni mustahkamlash uchun qo'shimcha treninglar va mashg'ulotlarga ehtiyoj seziladi.

## PEDAGOGIKA

	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Yangi tanish odamlar bilan muloqotda biroz qiyinchilik sezadi.</li> <li>✓ Konfliktlarni hal qilishda qisman samarali yondashuvni qo'llaydi.</li> <li>✓ O'quvchilar va hamkasblar bilan ishlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi.</li> <li>✓ Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirgan bo'lsa-da, ularni har doim samarali qo'llay olmaydi.</li> </ul>	
Past daraja	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ✗ O'z fikrini aniq va tushunarli ifoda etishda qiyinchilik sezadi.</li> <li>✗ Noverbal muloqot qoidalariga e'tibor bermaydi yoki ulardan noto'g'ri foydalanadi.</li> <li>✗ O'quvchilar va hamkasblar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladi.</li> <li>✗ Konfliktlar yuzaga kelganda, ularni hal qilishdan ko'ra, oldini olish yoki chetlab o'tishga harakat qiladi.</li> <li>✗ Jamoaviy ishslash ko'nikmalari sust rivojlangan.</li> <li>✗ Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilmaydi yoki ularni amaliyotda qo'llay olmaydi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Bu darajadagi o'qituvchilar samarali muloqot olib borishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa ta'lif sifati va o'quvchilarning faoliygiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus treninglar, psixologik maslahatlar va pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar zarur.</li> </ul>

Nomi keltirilgan barcha quyi tizimlar va ularning tarkibiy qismlari pedagogik ta'lifning maqsadiga ko'ra o'quv jarayonida ma'lum bir tarzda o'zaro ta'sir qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yondashuv asosida ijtimoiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirshning tizmli integrativ modelining mazmuni 1-rasmda keltirilgan.



## PEDAGOGIKA

O'quv loyihalari talabalarni ijodiy ishlashga, biror mavzu doirasida keng fikr yuritishga, olgan bilimlarini real hayotda yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlashga, nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashga, kasbiy layoqatni shakllantirish va rivojlantirishga ko'mak beradi.

Ta'lrim jarayonida talabalarni rag'batlantirish deganda o'quv faoliyatini tashqi mayllar orqali ifodalash tushuniladi. O'quv jarayonida ma'lum qiyinchilik sezayotgan talabalarga muvaffaqiyatlari vaziyatlarni yaratish rag'batlantirishning eng samarali turi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani ta'lrim va tarbiya jarayonida rivojlantirishda interfaol ma'ruza, o'quv dialogi, konferensiya, davra suhbat, bahs-munozara, binar dars, katta va kichik guruhlarda ishlash ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga yo'naltirilgan shakllar hisoblanadi. O'quv jarayonida ijtimoiy faollik va kommunikativlikka asoslangan vaziyatlar, topshiriqlar, loyihalar tattbiq etilishi kerakki, talaba ushbu jarayonlarda qattiq izlanishi, tafakkurini rivojlantirishi, maqsadga intilishi va o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortishi, ko'proq amaliy topshiriqlar bajarib, nazariy xulosalar chiqarishga yo'naltirilishi kerak bo'ladi. Bu jarayonda, albatta, bahs-munozara, seminar-trening, guruhlararo musobaqa, taqdimotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning fanga qiziqishlari, ijodiy darajada rivojlanishlari uchun tashkil etiladigan binar dars mashg'ulotlari muhim o'rinni tutadi.

Natijaviy-baholash komponenti model natijasiga erishish uchun muhim bo'lgan "Mezonlar" va "Darajalar"dan iborat.

"Mezon" tushunchasini bo'lajak o'qituvchilarda Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish jarayonida ko'rib chiqib, tadqiqotimizda bu atamaning N.V.Sichkova tomonidan taqdim etilgan interpretatsiyasiga tayandik. N.V.Sichkova mezon tushunchasini pedagogik faoliyatning samaradorligini kuzatish maqsadida uni uzviy baholash imkoniyatini beradigan sifatiy va miqdoriy jamlamasini sifatida izohlaydi. Uning fikricha, mezonlarni aniqlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: pedagogik faoliyatning samaradorligi sifatiy va miqdoriy jihatdan tashxislanishi, o'chanishi kerak; amalga oshirilayotgan faoliyatning asosiy yo'nalishlari va ustuvorligining mazmun-mohiyatini aks ettirishi kerak; kuzatilayotgan jarayonning barcha ahamiyatli jihatlarini qamrab olishi, u haqida yaxlit tasavvur hosil qilishi zarurat hisoblanadi [74;105-b].

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy faolligi va kommunikativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish faoliyatini tashkil etish va uni shakllantirish bosqichlari.

1. «Pedagogika fani metodologiyasi» fanini ijtimoiy faollik va kommunikativlik asosida o'qitish tizimining metodik tavsiyalari belgilanadi va bugungi jamiyat talablari asosida tayyor metodik tavsiyalar boyitiladi, amaliy faoliyatda qo'llaniladi.

2. Ijtimoiy faollik va kommunikativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limi amalga oshirish mazmuni, innovatsion metodlar va vositalari aniqlanadi, takomillashtiriladi, zarurat bo'lsa, qayta ishlab chiqiladi.

3. «Pedagogika fani metodologyasi» fanlarining professor-o'qituvchilari tomonidan talabalarning o'ziga xos sifatlarini inobatga olgan holda, ijtimoiylashuv va kommunikativlikka yo'naltirilgan o'qitish hamda tarbiyalashning o'ziga xos metodikasi ishlab chiqiladi.

4. Natijada ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasi rivojlangan pedagog kadr tayyorlanadi

Ta'lrim tizimini tubdan isloq qilish, ta'lim mazmuni yangilash jarayonida hamda har sohada rivojlanish sodir bo'lib turgan bugungi jamiyat uchun shu o'zgarishlarga tayyor mutaxassislar kerak. Bunday mutaxassislar esa oliy ta'lim jarayonida tayyorlanadi. Ta'lim jarayoni shunday murakkab jarayonki, unda pedagogning mahorati, kasbiy kompetentligi, professionalligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridaqgi vazifalar to'g'ri va samarali tashkil etilganda modeldan kutilgan "natija"ga erishiladi, ya'ni Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasi rivojlangan mutaxassis shakllantiriladi.

Tadqiqot ishlari jarayonida talabalarda Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni loyihalashtirishda interfaol o'qitish tizimi sifatida quyidagilarga asoslanildi: mashg'ulot bu ma'ruza emas, balki jamoaviy ish shakli ekanligi; guruuning tajribasi trener tajribasidan yuqoriqoq darajada aks etishi; yoshlari, ijtimoiy kelib chiqishi, tajribalaridan qat'i nazar, barcha talabalar o'qitish jarayonining teng huquqli a'zosi ekanliklari; o'qitish jarayonida har bir talaba muayyan savol yuzasidan mustaqil fikr yuritish huquqiga ega ekanligi; mashg'ulotlarda ishtirokchilar bir-birlarini o'zaro tanqid qilishga yo'l qo'yilmasligi.

**XULOSA**

Ma'lumki, interfaol o'qitish jarayoni pedagogning boshqaruviga asoslangan holda talabalarda o'z kuchiga ishonch hissini uyg'otish, ularga o'z vaqtida kerakli yordam berish, ta'lif oluvchilar bilish faoliyatini faollashtirish, fanni o'rganishga qiziqtirishga yo'naltirilgan muammoli metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, o'quv jarayonini individuallashtirish, nazariya bilan amaliyot integratsiyasini ta'minlash, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish uchun xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXARI**

1. Гончаров С.В. Социальная компетентность личности: сущность, структура, критерии и значение// Образование и наука. 2004. № 2 (26). С. 3 – 18
2. Давлетова Р.Y. Социально-психологические детерминанты креативной компетентности студентов: дисс. канд. пис. наук: . – 2016. – 155 с.
3. Давтян А.М. Формирование креативной компетентности учащихся в условиях школьного дополнительного образования: методические рекомендации для учителей / А.М. Давтян. – Челябинск: Изд-во ИИУМЦ, "Образование", 2006. – 51с.
4. Эгамбердиева Н. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва қасбий ижтимоиташтириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): пед. фан. доктори. ...дисс. – Т.: 2010.
5. Эхсонова. Ф.Т. Бошлангич синф ўкувчиларида креативликни ривожлантиришнинг педагогик механизмини такомиллаштириш. п.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. – Наманган, 2020. – 135 б.
6. Ермолаева-Томина, Л.Б. Психология художественного творчества / М.: Академический Проект: Культура, 2005. – 304 с.
7. Елизарова, Г. В. О природе социокультурной компетенции [Текст] // Слово, предложение и текст как интерпретирующие системы. Studia Linguitica 8. – СПб.: Тригон, 1998. – С.28.
8. Загвязинский, В. И. Моделирование структуре социально-педагогического проектирования // Материалы региональной научно-практической конференции "Моделирование социально-педагогический систем" (16-17 сентябрь 2004 г.) / Гл. ред. А.К. Колесников; Отв. ред. И.П. Лебедева; Перм. гос. пед. ун-т. – Пермь, 2004. – 410 с.
9. Заир-Бек Е.С. Теоритические основы обучения педагогическому проектированию: дис. ...докт. пед. наук. – СПб.: 1995. – 370 с.
10. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития: учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений // – М.: 2007. – 240 с.